I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022- yil 1- iyul holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni *(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)* 25 055 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 23 929 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,5 foizni tashkil qildi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (23,0 foiz), Qiziltepa (13,2 foiz), Karmana (15,7 foiz) va Xatirchi (11,8 foiz) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**25 055**	**100,0**	**23 929**	**100,0**
Navoiy sh.	5 765	23,0	5 442	22,7
Zarafshon sh.	1 823	7,3	1 732	7,2
G‘ozg‘on sh.	343	1,4	329	1,4
Konimex t.	997	4,0	953	4,0
Qiziltepa t.	3 315	13,2	3 143	13,1
Navbahor t.	2 632	10,5	2 471	10,3
Karmana t.	3 933	15,7	3 803	15,9
Nurota t.	1 684	6,7	1 626	6,7
Tomdi t.	655	2,6	597	2,5
Uchquduq t.	954	3,8	942	3,9
Xatirchi t.	2 954	11,8	2 891	12,1

Ro‘yxatdan o‘tgan sub‘ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,6 foiz), sanoat (16,1 foiz), qurilish (7,4 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (11,4 foiz) sohalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		***Faoliyat ko‘rsatayotgan***	
	birlik	***jamiga nisbatan, % da***	***birlik***	***jamiga nisbatan, % da***
Jami	**25 055**	**100,0**	**23 929**	**100,0**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2 973	11,9	2 844	12,2
sanoat	3 966	15,8	3 778	16,2
qurilish	1 821	7,3	1 758	7,5
savdo	8 717	34,8	8 327	35,7
tashish va saqlash	776	3,1	747	3,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 544	6,2	1 467	6,1
axborot va aloqa	287	1,1	272	1,1
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	362	1,4	353	1,5
boshqa turlari	4 609	18,4	4 383	18,8

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

11,9 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

15,8 %

Sanoat

7,3 %

Qurilish

34,8 %

Savdo

3,1 %

Tashish va saqlash

6,2 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1,1 %

Axborot va aloqa

1,4%

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

18,4 %

Boshqa turlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlarning ulushi 95,5 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 4,5 foizni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2022- yil 1- iyul holatiga 23 929 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 5 658 ta, oilaviy korxonalar – 4 111 ta, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar – 11 735 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 17 ta, unitar korxona – 38 tani va 168 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



2022- yil yanvar- iyun oylarida jami 2 398 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (408 ta), Karmana (301 ta), Qiziltepa (331 ta), Xatirchi (312 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa Tomdi (90 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (60 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 29,8 foiz, sanoatda 23,7 foiz, qurilishda 4,3 foiz va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 18,1 foizni tashkil etdi.

2022- yil 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 21 629 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga oshdi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 814 tasi (jami sub‘ektlarning 22,3 foizi) Navoiy shahri, 3 532 tasi (16.3 foizi) Karmana, 2 905 tasi (13,4 foizi) Qiziltepa, 2 891 tasi (12,0 foizi) Xatirchi hamda 2 593 tasi (12,0 foizi), Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 517 tasi (2,3 foizi) Tomdi, 819 tasi (3,7 foizi) Konimex tumanlari, 296 tasi (1,4 foizi) G‘ozg‘on shahar hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes sub‘ektlari
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	Jami	*Faoliyat yuritayotgan*	*Faoliyat yuritmayotgan*	*2022- yil yanvar-iyul oylarida yangidan tashkil etilgan*	*2022- yil yanvar- iyul oylarida faoliyati tugatilgan*	*1000 kishiga to‘g‘ri keladiga KB sub‘ektlari*
Jami	**22 655**	**21 629**	**1 026**	**2 310**	**911**	**46,1**
Navoiy sh.	5 092	4 814	278	374	121	30,1
Zarafshon sh.	1 675	1 591	84	196	81	51,4
G‘ozg‘on sh.	309	296	13	57	5	29, 1
Karmana t.	3 657	3 532	125	291	89	36,6
Konimex t.	860	819	41	109	60	43,1
Qiziltepa t.	3 067	2 905	162	325	87	51,4
Navbahor t.	2 442	2 290	152	237	50	48,2
Nurota t.	1 499	1 445	54	135	28	58,2
Tomdi t.	569	517	52	84	28	27,6
Uchquduq t.	835	827	8	194	154	46,4
Xatirchi t.	2 650	2 593	57	308	208	78,3

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2021- yil 1- iyul holatiga		*2022- yil 1- iyul holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan, % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**19 322**	**100,0**	**21 629**	**100,0**
Navoiy sh.	4 410	22.8	4 814	22,3
Zarafshon sh.	1 327	6.9	1 591	7,4
G‘ozg‘on sh.	71	0,4	296	1,4
Konimex t.	725	3,8	819	3,8

	2021- yil 1- iyul holatiga		2022- yil 1- iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	2 525	13,1	2 905	13,4
Navbahor t.	2 002	10,4	2 290	10,6
Karmana t.	3 224	16,7	3 532	16,3
Nurota t.	1 429	7,4	1 445	6,7
Tomdi t.	404	2,1	517	2,4
Uchquduq t.	880	4,6	827	3,8
Xatirchi t.	2 325	12,0	2 593	12,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 21 629 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining 8 311 tasi (38,4 foizi) – savdoda, 3 747 tasi (17,3 foizi) - sanoatda, 2 807 tasi (12,9 foizi) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 1 746 tasi (8,1 foizi) - qurilishda, 1 460 tasi (6,8 foizi) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 739 tasi (3,4 foizi) - tashish va saqlashda, 282 tasi (1,3 foizi) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 265 tasi (1,2 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 272 tasi (10,5 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 1- iyul holatiga ko‘ra) birlikda



2022- yil 1- iyul holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 1,2 foizni (278 ta), Navbahor tumanida esa ro‘yxatdan o‘tganlarning jami sonida 0,7 foizni (152 ta), Karmana 0,5 foizni (125 ta), Xatirchi 0,3 foizni (57 ta), Konimex 0,2 foizni (41 ta) va Tomdi tumani 2,2 foizni (52 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 911 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan sanoat 244 ta (26,7 foizi), savdo 378 ta (41,4 foizi), qurilish 41 ta (4,5 foizi) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 89 ta (9,8 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2022- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 246 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 147 tasi qo‘shma korxonalar, 99 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- iyul holatiga)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni

	Jami	*shundan:*	
		Qo‘shma korxona	*Xorijiy korxona*
Jami	**246**	**147**	**99**
Navoiy sh.	76	53	23
Zarafshon sh.	17	9	8
G‘ozg‘on sh.	4	2	2
Konimex t.	7	4	3
Qiziltepa t.	13	8	5
Navbahor t.	11	6	5

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxona	Xorijiy korxona
Karmana t.	72	40	32
Nurota t.	23	14	9
Tomdi t.	6	6	-
Uchquduq t.	8	1	7
Xatirchi t.	9	4	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahri 76 ta (30,8 foiz) va Karmana 72 ta (29,3 foiz) tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G‘ozg‘on shahrida 4 ta (1,6 foiz), Tomdi tumanida 6 ta (2,4 foiz), Uchquduq tumanida 8 ta (3,3 foiz), Konimex tumanlarida 7 tadan (2,8foiz), Xatirchi 9 tadan (3,7 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	**246**	**100,0**
Navoiy sh.	76	30,8
Zarafshon sh.	17	6,9
G‘ozg‘on sh.	4	1,6
Konimex t.	7	2,8
Qiziltepa t.	13	5,9
Navbahor t.	11	4,5
Karmana t.	72	29,3
Nurota t.	23	9,3
Tomdi t.	6	2,4
Uchquduq t.	8	3,2
Xatirchi t.	9	3,7

Faoliyat ko‘rsatayotgan 246 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 138 tasi (56,1 foiz) sanoat, 30 tasi (12,2 foiz) savdo, 30 tasi (12,2 foiz) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida, 4 tasi (1,6 foiz) tashish va saqlash, 17 tasi (6,9 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,6 foiz) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda, 1 tasi (0,4 foiz) axborot va aloqa, 3 tasi (1,2 foiz) sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 19 tasi (7,7 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan, % da*
Jami	**246**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	138	56,1
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	30	12,2
qurilish	17	6,9
savdo	30	12,2
tashish va saqlash	4	1,6
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4	1,6
Axborot va aloqa	1	0,4
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3	1,2
boshqa turlari	19	7,7

2022- yil yanvar- iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 15 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga kamaygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi -3 ta, Turkiya Respublikalari - 2 ta, Pokiston Islom Respublikasi – 1 ta, Angilya, Afg‘oniston – 1 tadan, Xitoy Xalq Respublikasi – 1 ta, Eron Islom Respublikasi – 2 ta.

15 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy (5 ta) shahar, Karmana (5 ta) tuman, G‘ozg‘on (2 ta) shahar, Zarafshon shahri, Nurota va Navbahor (1) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**15**	**100,0**
Navoiy sh.	5	33,3
Zarafshon sh.	1	6,7
G‘ozg‘on sh.	2	13,3
Konimex t.	-	-
Qiziltepa t.	-	-
Navbahor t.	1	6,7
Karmana t.	5	33,3
Nurota t.	1	6,7
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.		

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 10 ta, qishloq, o‘rmon, baliqchilik xo‘jaligida 1 ta qurilishda 2 ta va boshqa tarmoqlarda 2 tadan.

2022- yil 1- iyul holatiga 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (2 ta), Tomdi tumani (1 ta), Qiziltepa tumani (1 tadan) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- iyul holatiga 4 317 tani tashkil etib, ulardan 4 111 tasi yoki 95,2 foizi faoliyat yuritmoqda.

2022- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizga yoki 226 taga ko‘paydi.